“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=393

2026-yil
10-son
oktabr
ISSN 3093-8546



Moliyaviy razvedka boʻlinmasining korrupsiya profilaktikasidagi roli

Shuxrat Xomidov,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
Iqtisodiy jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish kafedrasi oʻqituvchisi
e-mail: sh.g.xomidov@proacademy.uz

Аннотация. Ushbu maqolada moliyaviy razvedka boʻlinmasining korrupsiya profilaktikasidagi huquqiy, institutsional va amaliy roli kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotda BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi, FATF standartlari, Egmont guruhi hujjatlari, Jahon bankining oʻgʻirlangan aktivlarni qaytarish tashabbusi (STAR) materiallari, Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda YeOGning oʻzaro baholash hisobotlaridan foydalanilgan. Moliyaviy razvedkaning shubhali operatsiyalar toʻgʻrisidagi xabarlarni qabul qilish, operasion va strategik tahlil oʻtkazish, benefitsiar mulkdorlar hamda siyosiy jihatdan nufuzli shaxslar bilan bogʻliq xatarlarni aniqlash, maʼlumotlarni vakolatli organlarga yuborish funksiyalari korrupsiyaning moliyaviy izlarini erta bosqichda ochish imkonini berishi asoslangan. Oʻzbekiston milliy tizimidagi mavjud imkoniyatlar va axborot integratsiyasidagi ehtiyojlar baholanib, korrupsiyaga xos tipologiyalar, idoralararo maʼlumot almashinuvi, natijaviylik indikatorlari va parallel moliyaviy tergovni kuchaytirish boʻyicha takliflar ishlab chiqilgan.

Калит сўзлар. moliyaviy razvedka boʻlinmasi, korrupsiya profilaktikasi, shubhali operatsiya, ommaviy mansabdor shaxs, benefitsiar mulkdor, moliyaviy tergov, aktivlarni qaytarish, idoralararo hamkorlik

Аннотация. В статье комплексно исследуется правовая, институциональная и практическая роль подразделения финансовой разведки в профилактике коррупции. Источниковую основу составили Конвенция ООН против коррупции, стандарты ФАТФ, документы Группы “Эгмонт”, материалы инициативы Всемирного банка по возврату похищенных активов (СТАР), законодательство Республики Узбекистан и отчёты ЕАГ о взаимной оценке. Обосновано, что получение сообщений о подозрительных операциях, оперативный и стратегический анализ, выявление рисков, связанных с бенефициарными владельцами и публичными должностными лицами, а также передача финансовой информации компетентным органам позволяют обнаруживать финансовые следы коррупции на ранней стадии. Оценены возможности национальной системы Узбекистана и потребности в интеграции данных. Предложены меры по разработке коррупционных типологий, улучшению межведомственного обмена, введению показателей результативности и

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

развитию параллельных финансовых расследований.

Ключевые слова. подразделение финансовой разведки, профилактика коррупции, подозрительная операция, публичное должностное лицо, бенефициарный владелец, финансовое расследование, возврат активов, межведомственное взаимодействие

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the legal, institutional and operational role of a financial intelligence unit in corruption prevention. The study relies on the United Nations Convention against Corruption, FATF standards, Egmont Group documents, World Bank Stolen Asset Recovery (StAR) materials, legislation of the Republic of Uzbekistan and EAG mutual evaluation reports. It demonstrates that receiving suspicious transaction reports, conducting operational and strategic analysis, identifying risks related to beneficial owners and politically exposed persons, and disseminating financial intelligence to competent authorities enable the early detection of corruption-related financial traces. The article assesses the capacity of Uzbekistan's national system and its need for stronger data integration. It proposes corruption-specific typologies, improved inter-agency information exchange, measurable performance indicators and wider use of parallel financial investigations.

Keywords. financial intelligence unit, corruption prevention, suspicious transaction, politically exposed person, beneficial owner, financial investigation, asset recovery, inter-agency cooperation

Kirish

Korrupsiyaga qarshi an'anaviy choralar asosan mansab vakolatidan g‘ayriqonuniy foydalanish faktini aniqlash, aybdor shaxsni fosh etish va javobgarlikka tortishga qaratilgan. Biroq korrupsiyaviy munosabatning iqtisodiy mazmuni pora, o‘zlashtirilgan mablag‘, manfaatlar to‘qnashuvi natijasida olingan daromad yoki davlat aktivlarining yashirin xususiylashtirilishi kabi moliyaviy oqimlarda namoyon bo‘ladi. Shu sababli korrupsiyaga qarshi siyosatning zamonaviy modeli huquqbuzarlik sodir etilganidan keyingi reaksiya bilan cheklanmasdan, g‘ayrioddiy pul harakati, mulkdorlik tuzilmasi va shaxsning rasmiy daromadiga mos kelmaydigan aktivlarni erta aniqlashni ham qamrab olishi lozim. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi davlatlarga pul yuvishning oldini olish tizimini shakllantirish, moliyaviy muassasalarda mijozni lozim darajada tekshirishni ta'minlash va moliyaviy razvedka bo‘linmalari o‘rtasida hamkorlik qilishni nazarda tutadi [1].

Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha Moliyaviy choralar ishlab chiquvchi guruhning (FATF) 29-tavsiyasiga muvofiq, moliyaviy razvedka bo‘linmasi (MRB) shubhali operatsiyalar to‘g‘risidagi xabarlar va jinoiy daromadlarni legallashtirish bilan bog‘liq boshqa axborotni qabul qilish, tahlil qilish hamda tahlil natijalarini vakolatli organlarga tarqatish bo‘yicha milliy markaz hisoblanadi [2]. Egmont guruhi ham ushbu uch funksiya – qabul qilish, tahlil va tarqatishni – moliyaviy razvedkaning institutsional yadrosi sifatida belgilaydi [3]. Mazkur funksiyalar

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

korrupsiyaga qarshi kurashda alohida qiymatga ega, chunki moliyaviy razvedka bo‘linmasi jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq isbotlash bosqichidan oldin shaxsning moliyaviy xulq-atvoridagi g‘ayritabiiylikni tahliliy indikatorga aylantiradi. Shunday qilib, uning profilaktik ahamiyati pora olish faktini bevosita qayd etishda emas, balki korrupsiyadan olingan daromadning bank, korporativ, mulkiy va transchegaraviy izlarini o‘zaro bog‘lashda namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotning maqsadi moliyaviy razvedka bo‘linmasining korrupsiya profilaktikasidagi o‘rnini huquqiy va funksional jihatdan ochib berish, O‘zbekiston milliy tizimining amaldagi imkoniyatlarini baholash hamda moliyaviy razvedka ma'lumotlaridan korrupsiyaviy xatarlarni erta aniqlashda foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot obyektini korrupsiyaga qarshi kurashish va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish tizimi o‘rtasidagi institutsional munosabatlar tashkil etadi. Tadqiqot predmeti esa shubhali operatsiyalar haqidagi xabarlar, yuqori mansabdor shaxslar, benefitsiar mulkdorlar, davlat xaridlari, manfaatlar to‘qnashuvi va jinoiy aktivlarni qaytarishga oid ma'lumotlarni moliyaviy tahlilda birlashtirish mexanizmlaridir.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada huquqiy-dogmatik, tizimli-funksional, qiyosiy-huquqiy va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Huquqiy-dogmatik usul BMT Konvensiyasi, FATF tavsiyalari va O‘zbekiston Respublikasining sohaviy qonunchiligida moliyaviy razvedkaga yuklatilgan vakolatlarni aniqlashga xizmat qiladi. Tizimli-funksional usul shubhali operatsiya haqidagi dastlabki xabardan boshlab tahliliy materialni vakolatli organga yuborish va aktivni saqlab qolishgacha bo‘lgan zanjirni baholash imkonini beradi. Qiyosiy tahlil turli institutsional modellardagi umumiy elementlarni – operatsion mustaqillik, ma'lumotlarga kirish, operatsion va strategik tahlil, xususiy sektor bilan qayta aloqa hamda xalqaro axborot almashinuvi mexanizmlarini ajratish uchun qo‘llanildi. Manbalar tanlashda rasmiy normativ-huquqiy baza, xalqaro standartlarni belgilovchi tashkilotlarning tahliliy hujjatlari va tan olingan ilmiy-amaliy nashrlarga ustuvorlik berildi.

Moliyaviy razvedkaning korrupsiya profilaktikasidagi funksional mazmuni

Moliyaviy razvedkaning birinchi profilaktik funksiyasi bu korrupsion jinoyatlarga xos bo‘lgan moliyaviy xulq-atvor indikatorlarni erta aniqlash va ularni o‘z vaqtida to‘xtatish chorasini ko‘rish hisoblanadi. Chunki, korrupsiyaviy daromad odatda mansabdor shaxsning o‘z nomida saqlanmaydi; u yaqin qarindosh, ishonchli shaxs, nominal rahbar, o‘zaro affillangan korxona yoki ofshor yurisdiksiyadagi yuridik shaxslarning hisob raqamlari orqali harakatlanishi mumkin. Shuning uchun bunday jinoyatlarni oldini olishda bitta operatsiya o‘zi bilan alohida baholash o‘zi yetarli emas. Moliyaviy razvedka mijoz profili, operatsiyaning iqtisodiy mazmuni, mablag‘ manbai, kontragentlar o‘rtasidagi bog‘liqlik, benefitsiar mulkdor, aktivlar va rasmiy daromad o‘rtasidagi tafovut ko‘rsatkichlarni birlashtirishi kerak bo‘ladi. Shu sababli, FATF moliyaviy va nomoliyaviy tashkilotlar tomonidan ommaviy mansabdor shaxslar bilan munosabatlarda mablag‘larning manbasini aniqlash, yuqori rahbariyat roziligini olish va kuchaytirilgan doimiy monitoring amalga oshirilishini jinoiy daromadlarni legallashtirishni oldini olishga qaratilgan zarur preventiv choralar

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

sifatida belgilaydi [8].

Ikkinchi asosiy funksiyasi bu yuridik shaxs yoki yuridik shaxs boʻlmagan tuzilmalarining ortida turgan benefitsiar mulkdorni (mulkdorlarni) aniqlash. Jahon banki va BMTning narkotik va uyushgan jinoyatchilik boshqarmasining STAR tashabbusi doirasida oʻtkazilgan tadqiqotlar natijasi korrupsiyadan olingan aktivlarni yashirishda soxta kompaniyalar, trastlar, fondlar, nominal aksiyadorlar va professional vositachilardan keng foydalanilishini koʻrsatmoqda [9]. Bunday holatda yuridik shaxsning rasmiy direktori yoki ta'sischisi operatsiyadan haqiqiy manfaat oluvchi shaxs boʻlmasligi mumkin. Shu sababli moliyaviy razvedka boʻlinmasi birinchi navbatda yuridik shaxslar reyestri, soliq va bojxona organlarining axborot tizimlari, koʻchmas mulk kadastri ma'lumotlari va transport vositalari reyestrlari, tashqi savdo shartnomalari hamda ochiq manbalardan olingan boshqa ma'lumotlarni tahlil qilish hamda oʻzaro bogʻliqlikni aniqlash orqali yuridik shaxsni haqiqatda nazorat qiluvchi yoki operatsiyadan manfaatdor boʻlgan shaxsni (benefitsiar) ochiqlash chorasini koʻrishi lozim boʻladi. FATFning 24-tavsiyasi asosida 2023 yilda chiqarilgan yuridik shaxslarnin benefitsiar mulkdorini aniqlash boʻyicha qoʻllanmasida ham bejiz vakolatli organlar benefitsiar mulkdor haqida toʻliq, aniq (toʻgʻri) va amaldagi (dolzarb) ma'lumotdan tezkor va toʻsiqlarsiz foydalanish imkoniyatiga ega boʻlishi zarurligi alohida ta'kidlab oʻtilmagan [13]. Zero benefitsiar mulkdorning shaffofligini amalda toʻliq ta'minlash orqali davlat xaridlaridagi korrupsiyaviy omillarni oʻz vaqtida bartaraf etish va bu orqali jinoiy daromadlarni legallashtirish ehtimolligini kamaytirishga erishish mumkin.

Uchinchi muhim funksiya korrupsiya bilan bogʻliq shubhali moliyaviy operatsiyalarni boshqa turdagi jinoiy sxemalardan farqlash imkonini beruvchi tipologiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Masalan, davlat xaridlarida gʻolib deb topilgan, yaqinda tashkil etilgan yuridik shaxsning hisobvaragʻiga katta miqdorda byudjet mablagʻlarining kelib tushishi, mazkur mablagʻlarning qisqa muddat ichida konsalting, agentlik yoki qarz shartnomalari asosida oʻzaro bogʻliq shaxslar hisobvaraqlariga oʻtkazilishi, keyinchalik esa naqdlashtirilishi yoxud yuqori qiymatli aktivlarga aylantirilishi korrupsiyaviy xavf mavjudligini koʻrsatuvchi muhim belgilar hisoblanadi. Shuningdek, mansabdor shaxslar bilan aloqador shaxslarning aktivlari qisqa davrda keskin ortishi, mansabdor shaxsning xizmat vakolatlari doirasiga kiruvchi korxonalardan muntazam ravishda mablagʻlar kelib tushishi yoki iqtisodiy jihatdan asoslanmagan holda yuqori xavfli yurisdiksiyalarga pul oʻtkazmalarining amalga oshirilishi qoʻshimcha moliyaviy tahlil va tekshiruv oʻtkazishni talab qiladi. Egmont guruhining korrupsiya natijasida olingan daromadlarni legallashtirishga oid uslubiy materiallarida ham moliyaviy razvedka boʻlinmalari faoliyatida korrupsiyaga xos indikatorlar, tipologiyalar va amaliy keyslardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan [10].

Jadval 1

Moliyaviy razvedka boʻlinmasining korrupsiyani oldini olishga qaratilgan faoliyati bosqichlari

Oʻzbekistonda moliyaviy razvedka va korrupsiyaga qarshi mexanizmlari

Mamlakatimizda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning bazaviy huquqiy asosi 2004-yil 26-avgustdagi 660-II-son Qonun bilan belgilangan. Qonunga muvofiq, maxsus vakolatli davlat organi shubhali operatsiyalar haqidagi xabarlarni qabul qilish, ma'lumotlar bazalarini

shakllantirish va tahlil qilish, yetarli asoslar mavjud boʻlganda materiallarni tegishli organlarga yuborish, axborot almashinuvini tashkil etish hamda pul mablagʻlari yoki boshqa mol-mulk bilan bogʻliq operatsiyalarni qonunda belgilangan muddatga toʻxtatib turish haqida koʻrsatma berish kabi muhim vakolatlariga ega [4]. Ushbu vakolatlar mazmunan FATF va Egmont guruhi kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan moliyaviy razvedka funksiyalari uchun belgilangan talablarga toʻliq mos keladi. Milliy tizimda bu funksiyalarni Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti maxsus vakolatli organ sifatida amalga oshiradi.

Shu bilan birga, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyundagi PF-6252-son Farmon bilan korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlar, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish samaradorligini oshirish maqsadida Departamentning axborot resurs bazasiga jami 68 ta ma'lumotlar bazasi va axborot tizimlarini integratsiya qilindi [5]. Natijada korrupsiyaviy sxemalarni oʻz vaqtida aniqlash va oldini olishda shubhali operatsiya yoki bitim haqidagi xabarlarni Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi, bojxona va soliq qoʻmitalari hamda boshqa bir qator vazirlik va idoralarning muhim elektron reyestrlari hamda axborot bazalaridagi ma'lumotlar asosida tezkor tahlil qilish imkoniyati yaratildi. Biroq fikrimizcha axborot bazalarini texnik integratsiya qilishning oʻzi yetarli emas. Chunki axborotning huquqiy maqomi, uning sifati, yangilanish davriyligi, identifikatorlarning yagona formati, axborotdan foydalanish huquqlari va uni tarqatish (oshkor etish), har bir soʻrovning “audit izi”ni saqlash shartlari qonunchilik bilan aniq belgilanmasa, katta ma'lumotlar samarali moliyaviy razvedka “mahsuloti”ga aylanmaydi. Shu sababli, integratsiya qilingan axborot bazalaridan foydalanish shartlari qonunchilik bilan aniq belgilab berilishi lozim.

YeOGning 2022 yilgi oʻzaro baholash hisobotida Oʻzbekiston milliy qonunchiligi FATFning 29-tavsiyasi, ya'ni moliyaviy razvedka boʻlinmasi faoliyati boʻyicha talablarga toʻliq muvofiq ekanini va moliyaviy razvedkadan foydalanishga oid 6-bevosita natija boʻyicha samaradorlikni sezilarli darajada samarador deb baholagan [6]. 2023-yilgi birinchi taraqqiyot hisobotida Oʻzbekiston kengaytirilgan kuzatuvdan muntazam kuzatuvga oʻtkazilgan, biroq ommaviy mansabdor shaxslarga oid 12-tavsiyasi, ichki nazoratga oid 18-tavsiyasida qisman muvofiqlik saqlanib qolingan [7]. Bu esa, moliyaviy razvedka institutining huquqiy maqomi va asosiy vakolatlari yetarli darajada shakllangan boʻlsa-da, korrupsiya profilaktikasida natija koʻproq xabar beruvchi tashkilotlarning ichki nazorat sifati, ommaviy mansabdor shaxslarni aniqlash, benefitsiar mulkdor haqidagi ma'lumotning yangilanganligi va xabar beruvchi tashkilotlarga beriladigan qayta aloqaga sifatiga bevosita bogʻliq hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisidagi OʻRQ-419-sonli Qonunida davlat xaridlari, ma'muriy tartib-taomillar, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni oʻz vaqtida aniqlash va ularga chek qoʻyish, shuningdek axborot almashinuvini korrupsiya profilaktikasining muhim yoʻnalishlari sifatida belgilangan [14]. 2024 yil 5 iyunda qabul qilingan Manfaatlar toʻqnashuvi toʻgʻrisidagi OʻRQ-931-son Qonunida esa mavjud va ehtimoliy manfaatlar toʻqnashuvi haqidagi xabarnoma va deklaratsiyalarni, ularni hisobga olish hamda tekshirish mexanizmlarining huquqiy asoslari yaratildi [15]. Qonunchilikda moliyaviy

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

razvedka boʻlinmasiga berilgan vakolatlar doirasida mazkur maʼlumotlarni bepul olish uchun huquqiy asosining mavjudligi va axborotni oshkor etmaslik choralari kafolatlanganligini inobatga olib manfaatlar toʻqnashuvi haqidagi xabarnoma va deklaratsiya maʼlumotlarini davlat xaridlaridagi shubhali moliyaviy xulq-atvor bilan solishtirish maqsadida olish profilaktik tahlilning sifatini sezilarli oshirishga xizmat qiladi. Biroq bu ushbu maʼlumotlar moliyaviy razvedka boʻlinmasining tahliliy maʼlumotiga toʻgʻridan-toʻgʻri kiritilishi kerak degan xulosa chiqarish notoʻgʻri boʻladi, chunki ushbu maʼlumotlar xam tekshirilishi hamda qoʻshimcha axborot manbalari bilan boyitilishi lozim.

Korrupsiyaga oid moliyaviy razvedka axborotining oʻziga xosligi

Moliyaviy razvedka axboroti xar doim ham jinoyat haqidagi xabarga tenglashtirilmaydi. Aksariyat hollarda u tahliliy axborot shaklida boʻlib, unda daromad manbalari, tranzaksiyalar ketma-ketligi, shaxslarning oʻzaro aloqadorligi, xavf indikatorlari va ehtimoliy jinoiy gipoteza shaklida tizimlashtiriladi. Uning qiymati tekshiruv yoʻnalishini belgilash, maʼlumotni tezkor olish, aktivlarni aniqlash va keyingi protsessual harakatlarni rejalashtirishda namoyon boʻladi. Shu sababli moliyaviy razvedka materialini qabul qilgan organ uni tanqidiy baholashi, mustaqil ravishda tezkor-qidiruv faoliyati natijalari va protsessual dalillar bilan tasdiqlashi hamda shaxs huquqlarini taʼminlashi shart. Ayni paytda moliyaviy razvedka materialining yetarlicha aniq, maqsadli va tekshiriladigan boʻlishi ham muhim: faqat yirik summadagi operatsiya yoki ommaviy mansabdor shaxs maqomi shubha uchun avtomatik asos boʻlmasligi, operatsiyaning iqtisodiy mazmuni va konteksti asosida baholanishi kerak. Bu borada FATF tavsilarida ham ommaviy mansabdor shaxslarga nisbatan choralarning profilaktik xususiyatga egaligini va barcha mansabdor shaxslarni jinoyatga aloqador deb qabul qilish mumkin emasligini alohida taʼkidlangan [8].

Korrupsiyaga oid operatsion tahlilda kamida toʻrt savolga javob izlanishi lozim: mablagʻning iqtisodiy manbai nima; operatsiyadan haqiqiy manfaatdor shaxs kim; operatsiya davlat organining qarori yoki mansabdor shaxsning vakolati bilan qanday bogʻlangan; mablagʻ keyin qanday aktiv koʻrinishiga keltirilgan yoki yurisdiksiyaga koʻchirilgan. Masalan, davlat xaridi ishtirokchisi shartnoma tuzilgandan soʻng mablagʻning bir qismi “maslahat xizmati” niqobi ostida boshqa shaxsning hisob raqamiga oʻtkazilishi va keyinchalik koʻchmas mulkka investitsiya qilinishini alohida operatsiya sifatida qonuniy operatsiya sifatida baholash baholash mumkin. Biroq, davlat xaridi ishtirokchisining benefitsiar mulkdori xarid komissiyasi aʼzosiga aloqadorligi aniqlansa va maʼlumotlar oʻzaro dalillar bilan bogʻlansa korrupsiyaviy jinoyat toʻgʻrisida gipoteza shakllanadi. Shu maʼnoda, moliyaviy razvedka tarqoq moliyaviy va huquqiy axborotlarni yagona bazada birlashtirish va ular oʻrtasidagi yashirin aloqadorlikni (korrelyatsiyani) aniqlash orqali korrupsiya profilaktikasini taʼminlovchi analitik markaz hisoblanadi.

Moliyaviy razvedka boʻlinmalari tomonidan amalga oshiriladigan strategik tahlil faqatgina individual subyektlar yoki alohida moliyaviy operatsiyalarni oʻrganish bilan cheklanib qolmaydi. Uning asosiy vazifasi makro darajada korrupsion daromadlarni legallashtirish tavakkalchiliklari yuqori boʻlgan iqtisodiyot tarmoqlari, hududlar hamda qonunchilikdagi korrupsiogen boʻshliqlarni tizimli ravishda identifikatsiya qilishdan iboratdir.

Xususan, davlat xaridlari tizimidagi soxta (bir kunlik) korxonalar ishtiroki, davlat ulushi mavjud tashkilotlardagi affillangan shaxslar bilan amalga oshirilgan bitimlar, mulkni baholash jarayonidagi sun'iy tafovutlar, shuningdek, litsenziya va ruxsatnomalar berilganidan so‘ng kuzatiladigan shubhali moliyaviy o‘tkazmalar kabi tipik indikatorlar kompleks sintez qilinib, nazorat qiluvchi organlar uchun «sohaviy xavf-xatarlar xaritasi» (risk-xarita) ishlab chiqiladi.

Xalqaro amaliyotda, xususan, “Egmont” guruhi ko‘rsatmalarida ham jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va korrupsiyaviy jinoyatlarga oid tavakkalchiliklarni milliy darajada baholashda moliyaviy razvedka bo‘linmalarining axborot bazasiga shunchaki statistik ma'lumotlar manbai sifatida emas, balki xavf-xatarlar tabiatini chuqur anglash hamda vakolatli organlar faoliyatini o‘zaro muvofiqlashtiruvchi strategik mexanizm sifatida qaraladi [17].

Shundan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, strategik tahlil natijalarini faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tezkor-tahliliy ehtiyojlari bilan chegaralab qo‘ymasdan, uni barcha davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplayens-nazorat) tizimlarini institutsional jihatdan takomillashtirishning asosiy dasturiy mezoni sifatida e'tirof etish maqsadga muvofiqdir.

Mavjud muammolar va tizimni takomillashtirish yo‘nalishlari

Mazkur sohadagi birinchi muammo — idoralararo axborot resurslarining tarqoqligi (fragmentatsiyasi) hamda subyektlarni identifikatsiya qilish mezonlarining o‘zaro muvofiq emasligi hisoblanadi. Xususan, amaliyotda bank tizimida mijozning shaxsiy identifikatori, soliq organlarida soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami (STIR), davlat xaridlari tizimida lot va shartnoma raqamlari, ko‘chmas mulk reyestrida esa kadastr raqami asosiy identifikatsiya belgisi sifatida qo‘llaniladi.

Turli idoralarga tegishli bo‘lgan ushbu xilma-xil ma'lumotlarni yagona tahliliy muhitda integratsiya qilish (o‘zaro bog‘lash) uchun jismoniy va yuridik shaxslarning ishonchli bazaviy ma'lumotlari (master-ma'lumotlar), ism-shariflarning transliteratsion variantlarini unifikatsiya qilish, shuningdek, qarindoshlik va affillanganlik (nazorat) aloqalarini aniq qayd etuvchi tizimli metodologiyani joriy etish talab etiladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, benefitsiar mulkdorlar to‘g‘risidagi axborotlar o‘z vaqtida aktuallashtirilmasa (yangilanmasa) yoki faqat deklarativ (rasmiyatchilik) xususiyatiga ega bo‘lib qolsa, eng ilg‘or analitik dasturiy ta'minotlar ham maqsadli va to‘g‘ri natijalarni bera olmaydi. Shu sababli, ma'lumotlarni integratsiya qilishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish jarayoni quruq texnik va texnologik platformalarni yaratishdan emas, balki axborot sifatining yagona standartlarini ishlab chiqish hamda ma'lumotlarning haqqoniyligini ta'minlashga qaratilgan qat'iy huquqiy javobgarlik mexanizmlarini o‘rnatishdan boshlanishi maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchi dolzarb muammo — shubhali moliyaviy operatsiyalar to‘g‘risidagi xabarlar sifatining nomutanosibligidir. Bu holat amaliyotda ikki xil salbiy oqibatni keltirib chiqaradi: bir tomondan, pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlarning haddan ziyod ehtiyotkorligi oqibatida yuborilayotgan, axborot qiymati past bo‘lgan ko‘p sonli xabarlar moliyaviy razvedka bo‘linmalarining tahliliy

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

resurslarini asossiz band qiladi; ikkinchi tomondan esa, korrupsion xususiyatga ega murakkab yashirin sxemalar mazkur subyektlar tomonidan yetarli darajada identifikatsiya qilinmay qolishi xavfi mavjud.

Mazkur muammoni bartaraf etishning institutsional yechimi sifatida davlat xaridlari, davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyati, qurilish, yer resurslarini ajratish, litsenziyalash, yuqori likvidli (qimmatbaho) aktivlar muomalasi hamda transchegaraviy xizmatlar koʻrsatish shartnomalari doirasida korrupsiyaga xos maxsus tipologiyalarni ishlab chiqish talab etiladi. Bunda har bir tipologiya doirasida faqatgina yakka tartibdagi xavf belgilari (“qizil bayroqlar”) bilan cheklanib qolmasdan, balki indikatorlarning kompleks kombinatsiyasini, ularning ehtimoliy qonuniy asoslarini (izohlarini) hamda xabarnomada aks ettirilishi shart boʻlgan minimal axborot standartini belgilash maqsadga muvofiqdir.

Xalqaro amaliyotda, xususan, FATF koʻrsatmalariga koʻra, korrupsiyaga qarshi kurashishda jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish mexanizmlaridan foydalanishning ilgʻor tajribasi ommaviy mansabdor shaxslar ustidan nazoratni kuchaytirish, benefitsiar mulkdorlarni aniqlash va samarali axborot almashinuvini ta'minlash kabi oʻzaro uzviy bogʻliq kompleks chora-tadbirlarni oʻzida mujassam etadi [12].

Uchinchi dolzarb muammo — moliyaviy razvedka faoliyati natijalariga nisbatan institutsional reaksiyani baholash mexanizmlarining cheklanganligidir. Moliyaviy razvedka boʻlinmasi samaradorligini faqatgina qabul qilingan yoki vakolatli organlarga yuborilgan xabarnomalar miqdori bilan oʻlchash yetarli emas. Korrupsiyaning barvaqt profilaktikasi tizimida quyidagi maqsadli natijadorlik koʻrsatkichlari muhim ahamiyat kasb etadi: korrupsiyaviy tipologiyalar asosida saralangan xabarlar salmogʻi; benefitsiar mulkdorlarga oid aniqlangan tafovutlar; tahliliy materiallar negizida qoʻzgʻatilgan dastlabki tergov ishlari; xatlangan, saqlab qolingan yoki davlatga qaytarilgan aktivlar hajmi; strategik tahlillar natijasida takomillashtirilgan nazorat-oʻlchov qoidalari hamda xabar beruvchi tashkilotlarga taqdim etilgan qayta aloqa (feedback) sifati. Mazkur statistik ma'lumotlarning maxfiylik rejimlariga qat'iy rioya qilgan holda, agregat (umumlashtirilgan) shaklda e'lon qilib borilishi tizimning jamoatchilik oldidagi hisobdorligini oshiradi va uning toʻlaqonli shaffofligini ta'minlaydi.

Toʻrtinchi muammo — moliyaviy razvedka, korrupsiyaga qarshi kurashishga ixtisoslashgan va tergov organlari oʻrtasidagi funksional vazifalar va yurisdiksion chegaralarni aniq demarkatsiya qilish (ajratish) bilan bogʻliq. Ta'kidlash joizki, moliyaviy razvedka boʻlinmasi korrupsiyaviy faktlarga yakuniy huquqiy baho (kvalifikatsiya) bermaydi va tergov organlarining vakolatlarini takrorlamaydi. Oʻz navbatida, korrupsiyaga qarshi organlar ham bank operatsiyalarini ommaviy va mustaqil ravishda tahlil qilish vakolatiga ega emas. Shu sababli, idoralararo hamkorlik «barcha ma'lumotni barchaga berish» prinsipiga emas, balki aniq huquqiy asos, maqsadli va asoslantirilgan soʻrov, mutanosiblik (proporsionallik), maxfiylik hamda har bir soʻrovning «audit izi» tamoyillariga asoslanishi shart. Axborot almashinuvining har bir kanalida ma'lumotlardan foydalanish maqsadlari, ularni uchinchi shaxslarga uzatish shartlari va saqlash muddatlari qat'iy reglamentatsiya qilinishi lozim.

Beshinchi muammo — jinoiy aktivlarni tezkorlik bilan bloklash (saqlab qolish) va parallel moliyaviy tergov institutini toʻlaqonli joriy etishdir. Korrupsion

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

faoliyat natijasida orttirilgan mablag‘lar qisqa muddat ichida naqdlashtirilishi, kripto-aktivlarga konvertatsiya qilinishi yoki offshor yurisdiksiyalarga olib chiqib ketilishi xavfi yuqori. Shu bois, asosiy korrupsiyaviy holat bo‘yicha dalillar bazasini shakllantirish bilan bir qatorda, aktivlarning genezisi (kelib chiqishi), joylashuvi, tranzaksion harakati va haqiqiy nazorat qiluvchilarini (benefitsiarlarini) identifikatsiya qilish talab etiladi. Egmont guruhi hamda Jahon bankining STAR tashabbusi qo‘llanmalarida moliyaviy razvedkaning aktivlarni qidirish, ularga vaqtinchalik cheklov qo‘yish va xalqaro hamkorlik uchun boshlang‘ich axborot bazasini shakllantirishdagi strategik roli alohida e'tirof etilgan [11, 16]. Parallel moliyaviy tergov amaliyotini barcha yirik korrupsiyaviy jinoyat ishlarida standart operatsion jarayonga aylantirish jinoiy daromadlarning soyaga kirib ketish xavfini keskin kamaytiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, institutsional yondashuvga ko‘ra, moliyaviy razvedka bo‘linmasi korrupsiyaviy huquqbuzarliklar tizimida tergovga qadar tekshiruv va tergov jarayonini ekspert-tahliliy jihatdan ta'minlovchi maxsus tuzilma hisoblanadi. Uning profilaktik ahamiyati shunchaki shubhali tranzaksiyalarni fiksatsiya qilish bilan emas, balki turli axborot tizimlaridagi ma'lumotlarini o‘zaro bog‘lash va latent (yashirin) moliyaviy aloqalarni verifikatsiya qilinuvchi ilmiy-amaliy gipotezalarga aylantira olish salohiyati bilan belgilanadi. Mazkur mexanizmning bazaviy determinantlari sifatida korrupsiyaga moyil shaxslar ustidan komplayens-nazorat, benefitsiar mulkdorlarning aktual registri, korrupsiogen tipologiyalar, samarali qayta aloqa konturi hamda parallel moliyaviy tergov instituti namoyon bo‘ladi.

Shunga ko‘ra, bizning fikrimizcha moliyaviy razvedka institutini korrupsiyaning iqtisodiy motivatsiyasini yo‘qqa chiqaruvchi “moliyaviy immun tizimi” sifatida e'tirof etish lozim.

Zero, korrupsiyaning asl maqsadi jinoyat sodir etish emas, balki noqonuniy boylikni legal iqtisodiy aylanmaga kiritishdir. Agar kuchli moliyaviy razvedka bo‘linmasi yashirin daromadlarning legal iqtisodiyotga kirish darvozalarini eng barvaqt bosqichda yopib qo‘ysa va «moliyaviy qalqon» vazifasini bajarsa, korrupsiyaviy qilmish o‘z-o‘zidan o‘zining iqtisodiy mantig‘ini yo‘qotadi.

Yuqorida qayd etilgan tizimli muammolardan kelib chiqib, quyidagi institutsional chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

birinchidan, hisobot beruvchi subyektlarga korrupsiyaga xos sohaviy tipologiyalar va xabarnomalarning sifat mezonlari yuzasidan muntazam ravishda qayta aloqa (feedback) berib borish;

ikkinchidan, davlat xaridlari va davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyati uchraydigan korrupsion holatlar yuzasidan davriy strategik moliyaviy tahlillarini tayyorlash;

uchinchidan, vazirlik va idoralarning ma'lumotlar bazasiga kirish va undan foydalanish jarayonlarida “audit izi” hamda rollarga asoslangan ruxsat berish tizimini majburiy ravishda qo‘llash, shuningdek olingan axborotdan foydalanish maqsadlarining huquqiy asoslarini belgilash;

to‘rtinchidan, moliyaviy razvedka tahliliy materiallarining natijadorligini doimiy ravishda monitoring qilish va tizimning umumlashtirilgan samaradorlik ko‘rsatkichlarini jamoatchilikka ochiq e'lon qilib borish;

beshinchidan, yirik miqyosdagi korrupsiyaviy jinoyat ishlari doirasida parallel moliyaviy tergov o‘tkazish hamda aktivlarni begonalashtirilishiga

qarshi kechiktirib boʻlmaydigan choralarini amalga oshirish tartibini normativ-huquqiy jihatdan mustahkamlash;

oltinchidan, xorijiy davlatlarning moliyaviy razvedka boʻlinmalari bilan oʻzaro axborot almashinuvi hamda aktivlarni qaytarish boʻyicha xalqaro tarmoqlar imkoniyatlaridan foydalanish koʻlamini yanada kengaytirish;

yettinchidan, moliyaviy razvedka boʻlinmasi axborot resurs bazasida ommaviy mansabdor shaxslar, yuridik shaxslarning benefitsiar mulkdorlari, manfaatlar toʻqnashuvi reyestri ma'lumotlar bazasini yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. United Nations. United Nations Convention against Corruption. New York, 2004. URL: https://www.unodc.org/pdf/corruption/publications_unodc_convention-e.pdf (murojaat sanasi: 24.07.2026).

2. Financial Action Task Force. The FATF Recommendations: International Standards on Combating Money Laundering and the Financing of Terrorism & Proliferation. Updated June 2026. URL: https://www.fatf-gafi.org/en/publications/Fatfrecommendations/Fatf-recommendations.html (murojaat sanasi: 24.07.2026).

3. Egmont Group. Financial Intelligence Units. URL: https://egmontgroup.org/about/financial-intelligence-units/ (murojaat sanasi: 24.07.2026).

4. Oʻzbekiston Respublikasining 2004 yil 26 avgustdagi 660-II-son «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish toʻgʻrisida»gi Qonuni (URL: https://lex.uz/docs/283717 (murojaat sanasi: 24.07.2026).

5. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 28 iyundagi PF-6252-son «Oʻzbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tizimini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida»gi Farmoni. URL: https://lex.uz/docs/5482727 (murojaat sanasi: 24.07.2026).

6. Eurasian Group / FATF. The Republic of Uzbekistan's Measures to Combat Money Laundering and Terrorist Financing: Mutual Evaluation Report. 2022. URL: https://www.fatf-gafi.org/en/publications/Mutualevaluations/Mer-uzbekistan-2022.html (murojaat sanasi: 24.07.2026).

7. Eurasian Group / FATF. Uzbekistan's Progress in Strengthening Measures to Tackle Money Laundering and Terrorist Financing: Follow-Up Report. 2023. URL: https://www.fatf-gafi.org/en/publications/Mutualevaluations/fur-uzbekistan-2023.html (murojaat sanasi: 24.07.2026).

8. Financial Action Task Force. FATF Guidance: Politically Exposed Persons (Recommendations 12 and 22). Paris, 2013. URL: https://www.fatf-gafi.org/en/publications/Fatfrecommendations/Peps-r12-r22.html (murojaat sanasi: 24.07.2026).

9. Van der Does de Willebois E., Halter E.M., Harrison R.A., Park J.W., Sharman J.C. The Puppet Masters: How the Corrupt Use Legal Structures to Hide Stolen Assets and What to Do About It. Washington, DC: World Bank, 2011. URL: https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/784961468152973030 (murojaat sanasi: 24.07.2026).

10. Egmont Group. FIU Tools and Practices for Investigating Laundering of the Proceeds of Corruption: Public Summary. 2019. URL: https://egmontgroup.org/wp-content/uploads/2021/09/2019_Public_Summary_FIU_Tools_and_Practices_for_Investigating_Laundering_of_the_Proceeds_of_Corruption.pdf (murojaat sanasi: 24.07.2026).

11. Egmont Group. Asset Recovery – The Role of FIUs. 2022. URL: https://egmontgroup.org/wp-content/uploads/2022/05/Sanitized-Asset-Recovery-Report-2.pdf (murojaat sanasi: 24.07.2026).

12. Financial Action Task Force. The Use of the FATF Recommendations to Combat Corruption: Best Practices Paper. Paris, 2013. URL: https://www.fatf-gafi.org/en/publications/Corruption/Bpp-fatfrecs-corruption.html (murojaat sanasi: 24.07.2026).

13. Financial Action Task Force. Guidance on Beneficial Ownership of Legal Persons. Paris, 2023. URL: https://www.fatf-gafi.org/content/fatf-gafi/en/publications/Fatfrecommendations/Guidance-Beneficial-Ownership-Legal-Persons.html (murojaat sanasi: 24.07.2026).

14. Oʻzbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvardagi OʻRQ-419-son «Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida»gi Qonuni (Law of the Republic of Uzbekistan “On Combating Corruption”). URL: https://lex.uz/docs/-3088008 (murojaat sanasi: 24.07.2026).

15. Oʻzbekiston Respublikasining 2024 yil 5 iyundagi OʻRQ-931-son “Manfaatlar toʻqnashuvi toʻgʻrisida”gi Qonuni (Law of the Republic of Uzbekistan “On Conflict of Interest”). URL: https://lex.uz/docs/-6952742 (murojaat sanasi: 24.07.2026).

16. Brun J.-P., Gray L., Scott C., Stephenson K. Asset Recovery Handbook: A Guide for Practitioners. Second edition. Washington, DC: World Bank / UNODC StAR Initiative, 2020. URL: https://star.worldbank.org/sites/default/files/2020-12/Asset%20Recovery%20Handbook%20-%20Second%20Edition.pdf (murojaat sanasi: 24.07.2026).

17. Egmont Group. The Role of FIUs in the National Risk Assessment Process. 2024. URL: https://egmontgroup.org/wp-content/uploads/2024/09/The-Role-of-FIUs-in-the-National-Risk-Assessment-Process.pdf (murojaat sanasi: 24.07.2026).